

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDAGI TURKISTON TOSHBOSMA KITOBLARINING BADIY BEZAKLARI



Noila R. Nabiyeva

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasи o‘qituvchisi
nabiyevanola33@gmail.com

Avazbek Qodirov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasи o‘qituvchisi
millatparvar@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda bosilgan toshbosma kitoblarining badiiy bezaklari va xususiyatlari hamda qo‘lyozma kitoblardan farqli va o‘xhash jixatlari o‘rganilib tadqiqt etilgan.

Аннотация: В данной статье изучаны художественное оформление и особенности литографированных книг, напечатанных в Туркестане в конце XIX - начале XX вв., а также исследованы их отличия и сходства с рукописными книгами.

Abstract: In this article, the artistic decoration and features of lithographed books printed in Turkestan in the late of 19th - early of 20th centuries studied, and compared with illumination of manuscripts.

Asrlar o‘tib zamon rivojlanib ilm-fan va texnika taraqqiyoti yuksalib bordi. Qo‘lyozma kitoblar o‘rnini toshbosma kitoblar egalladi. Kitoblarining tayyorlanish usullari bilan birga bezash usuli ham o‘zgardi. O‘z navbatida toshbosma kitoblarining bezak va xususiyatlarini ilmiy o‘rganish ham bugungi kunda muhim masalalardan biri sifatida ahamiyatlidir.


O‘rta asrlarda Sharq madaniyati tarixida qo‘lyozma kitoblar alohida o‘rin egallagan. Ularga mo‘tabar ijod turi sifatida qaralishiga Qur‘oni karimning asosiy kitob bo‘lganligi va u o‘z navbatida diniy qadriyatlar tizimida yetakchi rol o‘ynagani bilan izohlanadi. Hukmdorlar va homiyalar, madrasalar va fuqarolar tashkilotlari kutubxonalari o‘quv, falsafiy va diniy risolalar bilan to‘ldirilar va ushbu yo‘l bilan islom madaniyatining insoniy ma’rifiy qadriyatlarini targ‘ib qilinar edi. Xattot va miniatyurachi rassom mahoratlarini o‘ziga singdirgan qo‘lyozma kitob haqiqiy san’at asari darajasiga ko‘tarilgan. O‘z davrida shoirlarining kitoblari maxsus muqovasozlar, naqqoshlar va musavvirlar tomonidan bezatilib kelingan. Kitobat san’ati tasviriy san’atning eng tarixiy san’at turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san’at turi o‘z zamonining mashxur yozuvchilari tomonidan yozilgan qo‘lyozma kitoblarni muqova hamda ichki suratlar bilan bezash orqali yuzaga kelgan. Kitobat san’ati XV-XVI asrlarda Sulton Husayn Boyqaro davrida gullab yashnagan. Bu davrda qo‘lyozma kitoblar muqovalari charim(pishitilgan teri)ga zarb qilish usuli bilan tushirilgan. Charim muqovalar turli murakkab naqshlar bilan masalan shams, turunch va lola kabi naqsh turlari bilan ishlov berilgan. Shuningdek mayda o‘simliksimon naqshlardan ham foydalanilgan. Eski o‘zbek yozuvlari bilan matnlar yozilgan. Ushbu ishlar bilan alohida usta mutaxassislar shug‘ullanishgan.

Muqovasozlik (muqovachilik, sahhoiflik) — [kitob, jurnal](#) va boshqalarni muqovalash kasbi; matbaa jarayonlaridan biri. Muqovalash kitob blokini ishlash (juzlangan daftarlarni tikish, yelimlash, presslash, uch tomonidan tekislab kesish), muqova g‘ilofini tayyorlash (g‘ilofni yig‘ish, unga tasvir va matnni tushirish) va muqovani kitob bloki bilan biriktirish kabi jarayonlardan iborat. Bu jarayonlar potok liniyalarda mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Muqovasozlik qadimiy soha bo‘lib uning yuzaga kelishi yozuv va qog‘ozning ixtiro qilinishi bilan bog‘liq. [O‘rta Osiyo](#) uchun namuna vazifasini o‘tagan muqovali arab kitoblari (VII—XI-asrlar) qat’iy ko‘rinishga

ega bo'lib, bosma usulida oddiy xandasiy naqshlar bilan bezatilgan. Sharqda eng qimmatli qo'lyozma kitoblarga qo'shimcha qopqoqli charm muqova ham ishlangan. Ayrim muqovalarda kitobni, yozuvni ulug'lovchi she'riy parchalar zarb etilgan. Bundan tashqari kitoblarga super muqova ham tayyorlangan. Bu kitob muqovasining tashqi ta'sirlar (buklanish, yirtilish, kirlanish va shu kabi muqova bezaklariga yetadigan boshqa zararlardan) himoyalash uchun ishlatilgan. G'arb qo'lyozma kitoblariga esa alohida qulf vazifasini o'tovchi ilgak-bezak sifatida yaratilgan. XVI-asrda Vizantiya muqovalari Sharq va G'arbda umumiy bo'lgan turunj (medalon) mujassamotli muqova uchun namuna vazifasini o'tagan. Mo'g'ullar istilosidan keyin Temuriylar hukmronligi davrida Muqovasozlik rivojlandi, muqovani bezash usuli yanada takomillashdi, XV-XVI asrlarda yuksak darajaga ko'tarildi: turunjli mujassamotlar nafis naqsh bezagi, o'yma guli hamda bo'yoqlarining uyg'unligi bilan boyitildi; bo'yama o'simliksimon naqshli muqovalar yuzaga keldi, ular yorqin bo'yoqlarda ishlanib, lok bilan jilo berildi. Bu ko'rinishdagi muqova barcha tarixiy, badiiy adabiyotlar muqovalarida o'z ifodasini topgan. XV—XVI asrlarda jild naqshlari ustiga oltin, kumush yogurtirilgan. Bu davrda yaratilgan ajoyib charm muqovalarga misol qilib [Alisher Navoiy](#)ning devon va dostonlari qo'lyozmalariga ishlangan charm muqovalarni keltirishimiz mumkin bo'ladi.




Alisher Navoiy qo'lyozma kitoblarining muqovalari.




Alisher Navoiy qo'lyozma kitoblarining forzastlari

Muqovaning formalari, ishslash uslubi va bezagi jihatidan toshbosma kitoblar qo‘lyozma kitoblardan deyarli farq qilmagan. Kitob muqovalari rangli teridan, ya’ni qizil sariq, yashil terilatrdan tayyorlangan. Lekin toshbosma kitoblarda charm muqovali kitoblar juda kam uchragan. XVIII—XIX asrlar O‘rta Osiyo Muqovasozligida qo‘lyozmalar muqovasi ikki qalin karton qopqoq hamda tekis tubdan (ba’zan quyi qopqoqqa biriktirilgan va qo‘lyozmani tashqi ta’sirdan saqllovchi qo‘shimcha qopqoqdan) tuzilgan. Muqovaning g‘ilofini tayyorlashda turli (qo‘y, echki, ot, eshak va boshqalar) teri qoplamlardan foydalanilgan, ular rangdorligi bilan ajralib turgan. XVII asr, ayniqsa, XVIII asrda Buxoro, Qo‘qon xonligida Muqovasozlikda aralash muqo-valar (charmdan qopqoqning yon tomonlarini birlashtiruvchi adip sifatida foydalanilgan), Xiva xonligida qora rangli sipo charm muqovalar, shuningdek yarim charm muqovalar ham keng ishlatilgan. Bu soxada ijod etgan ko‘plab sahhoflar nomi saqlanib qolgan. Muqova qoplamasini uchun sirti loklangan o‘simliksimon naqshli papemashe (mag‘zi soxta), guldar mato, ayrim hollardagina yog‘och (chinor), quyma kumushdan (mo‘tabar kitoblar, masalan Qur’-onda) foydalanilgan. Muqovaga kitob nomi yozilmagan, ularga naqshli bezak (vertikal o‘q bo‘ylab joylashtirilgan turunjlarining turlicha mujassamoti) va sodda aylanma chiziqli hoshiyalar ifodalilik baxsh etgan. Muqovalardagi "lola" naqsh orasiga usta nomi va yaratilish tarixi bitilgan. Rasmlar bosma usulida bajarilgan yoki tasvir yaratilib ustidan lok yuritilgan. Buxoroda zardo‘zlik bilan bezatilgan muqovalar ham uchraydi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida qo‘qonlik muqovasozlarning ishlari mashhur bo‘lgan: ustalar misdan o‘ziga xos bezakli maxsus shaklli "muhr" qoliplar tayyorlagan; muqova qopqog‘i va muqovaning ichki tomoni ham shu qoliplarda bezatilgan, qopqoq sirti muqova qopqog‘ining bezak shakliga moslab tuzilgan. Forzatsning jimjimador "buta", o‘simliksimon va



handasiy naqshlari "abrbandi" usulida bezatilib, ba’zan forzatslar bezagida muqova bezagidagi hoshiyalar takrorlangan. Ushbu davrda yashab ijod qilgan yozuvchi va rassom Siddiqiy Hondayliqiy tomonidan forsiyidan o‘zbekchaga tarjima qilib ko‘chirilgan “Turli ajoyib ul mahluqot” nomli kitob ham bezatilish jihatidan o‘rta asr an’analari asosida tayyorlangan. Biroq homashyolari XIX asrda urfga kirgan kartondan yasalgan muqovali kitob ko‘rinishida ishlangan. Ushbu kitob hozirgi kunda Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi fondida saqlanmoqda. Bugungi kunda ushbu asarning Siddiqiy Hondayliqiy tomonidan toshbosma usulida ko‘chirilgan nusxasi Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyida ekspozitsiya fondini boyitishga xizmat qilmoqda va tadqiqotlar uchun ochiq. Ushbu kitob 1917 yilda yozilgan bo‘lib kitob turli xildagi jonivorlar haqida yozilgan. Kitobning muqovasi ko‘krangli karton muqova hisoblanadi.

Asar to'liq 200 betdan iborat 25x18 o'lchamga ega. Kitobning tituli qizil rangli qog'ozga to'rtburchak hoshiya naqsh va o'rtasida oval aylana ichiga eski o'zbek yozuvining nasta'liq xat turida asarning nomi yozilgan. Kitob varaqlari mumtoz kitobat san'ati uslubida tayyorlangan. Tadqiqotlarga qaraganda toshbosma kitoblarida, qo'lyozma kitoblardan farqli o'laroq titul varag'i bo'lmagan. Bu varaq toshbosma kitoblarda muqovadan keyingi o'rinda qo'llanila boshlagan. Titul varag'iga kitob nomi muallifi va (toshbosmaxona nomi, senzura buyrug'i raqami va boshqalar) yozilgan bo'lib ular varaqning quyidz joylashtirilgan. Titul varaqlarning sarlavha yozilishi kerak bo'lgan qismlariga doira yoki birnecha doiralar chizish usuli qo'llanilganligi bilan murakkabroq ko'rinishga ega bo'lgan. Gorizontal bo'laklarning bir qismi naqshlar bilan ham to'ldirilgan. Bu usullar titul varag'i bo'lmagan kitoblarda ham ya'ni qo'lyozma kitoblarda ham uchraydi. Aytib o'tish joizki Turkistonlik matbaachilarining yevropalik lardan tubdan farplaydigan tomoni shundaki, turkistonda varaqning bir tomoniga bir xil kenglikda hoshiyalar chizish shart bo'lmagan. Sharq an'anasiaga ko'ra esa varaqning ikki, uch yoki to'rt tomoniga turli ko'rinishdagi hoshiya bezaklari ishlangan. Toshbosma kitoblar ham qo'lyozma kitoblar singari badiiy qo'lyozma san'atining ko'p yillik eng ajoyib an'analarini to'la-to'kis o'zida ifodalagan. Eng yaxshi qo'lyozma kitoblarga xos bezaklar (naqsh, chiziqlar, suratlar, katak, raqamlar va hakozolar) toshbosma kitoblarda ham rasm qilingan. Qo'lyozma kitob an'analariga sodiqlik kitob matnining so'nggi satrlarini oxiri kesilgan uchburchak shakliga kiritib yozish usulining keng qo'llanilishida namoyon bo'ladi.



Ajoyib ul-muhimmot va hazoin ul-ibodat nomli kitobning muqova suratlari.

Muqovasozlik ishi 1930-yillargacha hunarmandlik usulida davom etgan. Shu usulda tayyorlangan Navoiy asarlari va boshqa qo‘lyozma kitoblar hozirgacha saqlangan. Kitobat san’atini qayta tiklashga bo‘lgan urinishlar samarali yakunlandi: 70—80-yillarda qo‘lyozma kitob yaratish an’anasi, shu jumladan, muqova, muqova bezagi, an’anaviy Muqovasozlik ham qayta tiklandi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining “Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasida “Xattotlik va miniatyura” yo‘nalishi talabalari ushbu an’anaviy san’at turi ya’ni “Kitobat san’ati” fani hamda “Dastgoh va kitob grafikasi” yo‘nalishi talabalari “Maketlashtirish” fanlari orqali kitob tayyorlash tarixi va usullarini o‘rganib saboq olib kelmoqdalar. Bu esa bir necha ming yillik ustoz shogird va hunarmandlik an’analarini davom etayotganidan dalolatdir. Bundan tashqari soha bo‘yicha magistirlik va doktorlik ishlari ham olib borilmoqda. Ushbu sohani o‘rganish va tadqiq etish O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi qarorida ham o‘z ifodasini topgan. Tariximizdagi muhim ahamiyatga molik asarlarni o‘rganish tadqiq etish va kelajak avlodga yetkazish borasida gap ketganida O‘zbekiston respublikasi prezidebtining 2017 yil 24 maydag‘i «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan yozma yodgorliklarimizni o‘rganishning yangi bosqichi shakllantirilganini aytib o‘tish lozimdir. Qarorda belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasining turli tashkilotlarida saqlanayotgan arab yozuvidagi qo‘lyozma asarlar, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlarning saqlanish va ta’mirlanish holatini monitoring qilish va ularning elektron bazasini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalangan adabiyot ro`yxati:

1. О‘зМЕ. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. С.Хондайликий. Турли Ажойиб улғмахлукот, Ғаройиб улғмавжудод. Тошкент 1917.
3. O‘ZBEKISTON MADANIY MEROXI. ROSSIYA FANLAR AKADEMIYASI SHARQ QO‘LYOZMALARI TO‘PLAMI. “Silk road media”.”East road media” Toshkent 2020.
4. "Bosmaxona" [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Махмудова Р. Литографированные произведения и их значение в истории узбекской литературы (конец XIX – начало XX.). – Т.: 1971
6. San’at. 1/2000. Elmira Gul. Kitob qo‘lyozmalarining qayta tug‘ilishi.
7. Сулаймон X., Сулаймонова Ф.. А.Навоий асарларига ишланган расмлар. XV-XIX асрлар. – Т.: Фан, 1981. 36стр. 2екз.
8. Полякова Е., Рахимова З.. Миниатюра и литература востока. [Текст] – Т.: 1987. 288стр. 2екз.
9. А.Ҳакимов. Ўзбекистон санъати тарихи. Қадимги давр, ўрта сарлар, ҳозирги замон. Тошкент: Зилол булоқ, 2022 528 б.
10. Абдумажид Мадраимов. Ўзбекистон миниатюра санъатини ўрганиш масаласи. №67. 2.2015. 25-27 бетлар
11. Шукур Асқаров. Миниатюраларнинг идеал олами. №.80 2.2018. 9-13 бетлар
12. А.Ш.Мирзорахимов. Ўрта Осиёда тошбосма китоб тарихи (XIXаср охири - XX аср бошлари). Тошкент-2009.
13. Sabirov M.M. Kitobot san’ati [Matn]: o‘quv qo‘llanma / M.M.Sabirov. – Toshkent: Info Capital Group, 2018. – 152B.: 75 ekz.
14. Хаджиметов Б. Ашёларда ишлаш [Матн]: ўқув қўлланма / Б.Хаджиметов. – Тошкент: Инфо Сапитал Гроуп, 2018 – 108 б. 70 экз.